

О‘ЗBEK TILIDA KO‘PLIK SHAKLINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Odina Siddikovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası

o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) ilmiy maslahatchi

Akbarova Faridaxon Botirali qizi

ADCTI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida ko‘plik qo‘shimchasining grammatik shakli va uning semantik xususiyatlari misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: grammatik shakl, kontekst, semantik xususiyat, uslubiy ma‘no, son kategoriyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются грамматическая форма суффикса множественного числа в узбекском языке и его семантические особенности с примерами.

Ключевые слова: Грамматическая форма, контекст, семантическая особенность, стилистическое значение, категория числа.

Annotation: This article analyzes the grammatical form of the plural suffix in the Uzbek language and its semantic features with the help of examples.

Key words: grammatical form, context, semantic feature, stylistic meaning, category of number.

Ko‘plik shakli har qanday tabiiy tilda mavjud bo‘lgan asosiy grammatik kategoriyalardan biri bo‘lib, u o‘zbek tilida ham grammatik birlik sifatida muhim o‘rin egallaydi. Biroq ko‘plik shakli ba’zida grammatik ko‘plikni emas, boshqa ma‘no tuslarini bildirishi bilan o‘rinlidir. O‘zbek tilida ko‘plik asosan -lar qo‘shimchasi orqali ifodalanadi va u grammatik jihatdan predmet yoki hodisaning sonini bildiradi. Ammo ko‘plik shaklining vazifasi faqatgina sonni ifodalash bilangina cheklanib qolmaydi. U

turli kontekstlarda hurmat, noaniqlik, turlilik, umumlashtirish, emotsional yoki uslubiy ma'nolarni ham anglatadi, shuning uchun ham ko'plik shakllarini tahlil qilish nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik, pragmatik va stilistik nuqtayi nazardan ham muhimdir.

O'zbek tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishiga doir tadqiqotlarda ot kategoriya talqini keng o'rin egallaydi.¹ Xususan, ko'plikning -lar morfologik ko'rsatkichi orqali ifodalanishiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari asosiy qismni tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida ham son kategoriyasi tahliliga doir tadqiqotlarning aksariyati ko'plikni ifodalash turlariga bag'ishlangan. "O'zbek tiliga nisbatan "faqat birlikda ishlatiluvchi otlar", "faqat ko'plikda ishlatiluvchi otlar" haqida emas, balki -lar affiksini oluvchi va -lar olmaydigan otlar haqida, ularning o'z ichki ma'no guruhlanishi haqida gapirish ma'qul.²

-lar affiksining tarixiy kelib chiqishi va shakllanishi haqida turli qarashlar ham mavjud:

"-lar affiksining boshqa barcha funksiyalarini son kategoriyasi doirasida izohlash ham o'rinli emas. Son kategoriyasida beriladigan talqinlar orasidan -lar affiksining egalik va tuslovchi tarkibida qatnashuvini chiqarib tashlash lozim: bular son kategoriyasining shakli emas, balki -lar ko'rsatkichining boshqa grammatik kategoriyalarning formalari tarkibida qatnashuvidir.³

Holbuki, o'zbek tilida son turkumida grammatik (formal) son mavjud emas. Barcha sifatning grammatik songa daxli yoq. Ulardan ba'zisi (yolg'iz, talay) lug'aviy sonni anglatadi. A.G'ulomovning "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" asarida -lar shakli ifodalaydigan ma'nolar mufassal tahlil qilinadi: «Ko'plik formasiga kirgan ot bilan ifodalanadigan ma'nolar turlichadir. Bu turlilik, asosan, ko'plikni qabul qiluvchi so'zning leksik ma'nosiga qarab boladi, ba'zi o'rinlarda uni kontekstgina aniqlaydi». Muallif -lar shakli ifodalaydigan ma'nolar quyidagi o'n uch turdan iborat deb ko'rsatadi:

1) predmet sonining ortiqligi: musofirlar, daraxtlar, yigitlar, mehmonlar.

¹ G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. –T: Fan, 1994. -56 b.

² O'zbek tili grammatikasi I (Morfologiya). – T.: Fan, 1975. -126 b.

³ "O'zbek tili grammatikasi", 1975: 126-127 b.

2) tur ma'nosi: suvlar, unlar, yog'lar.

3) to'dalarning ko'pligi: xalqlar, ellar.

4) hurmat: dadamlar, oyimlar, opamlar, tog'amlar.

5) mazax: O'zlari kelibdilar-da?

6) ma'noni kuchaytirish: yuraklarim, uyqularim, tuyg'ulari, sevinchlarim.

7) belgi ma'nosini aniqlashtirish: Tabiat go'zalliklarini tomosha qildim.

Tartibsizliklar kundan kunga ortib bormoqda.

8) umumlashtirish: Tiyonshon, Kazbek, Hindiqushlar buyuk tog'dir. Botir, Aziz, Otabeklar bir bo'lib dushmanga qarshi kurashdilar.

9) ish-harakatning uzoq davom etishi, yo takrori, «marta»: Qadam tashlashlar unga tanish edi. Bunday yelib-yugurishlar samarasiz ekanligini mana endi tushundi.

10) «yaqinlari» ma'nosi: bu choq -lar atoqli otlarga qo'shilgan bo'ladi: Ahmadlar, Malohatxonlar, Quvalar, Samarqandlar.

11) taxmin: o'n-o'n ikki yoshlardagi, yettilarda.

12) chegaralash: non (umuman) — nonlar (qism, shundan bir necha tur).

13) ko'plikni ta'kidlash (ikki koplik): bizlar, sizlar, ular, ko'p odamlar.

Bu ma'nolar o'z ichida bir necha ko'rinishga ega. Bu ma'nolarning barchasini ham son kategoriyasi doirasiga kiritib bo'lmaydi. Jumladan, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, to'qqizinchi va o'n birinchi tur ma'no «ko'plik shakli»ning semantik mazmuni tarkibiga kirmaydi.⁴

A.G'ulomov oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti uchun yozgan darsligida ham son kategoriyasini sof grammatik (formal, sintaktik) hodisa sifatida talqin qiladi.⁵ Bunda -lar, -(i)sh faqat ko'plik, ularni olmagan shakl faqat birlik bildiradi deb hisoblab, ular sintaktik vazifa bajaradi, ya'ni ega-kesimni bog'laydi deb ko'rsatadi. Mazkur shakllarni sof grammatik ko'rsatkich sifatida qarab, ularning logik miqdor (birlik-koplik) bilan munosabatini quyidagicha izohlaydi: Bolalar yugurdilar deganda ega ham, kesim ham ko'plik ma'nosini anglatadi va ko'plikning morfologik

⁴ G'ulomov A. "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi". –T: O'zdnashr. 1994, 25-b.

⁵ G'ulomov A., Asqarova M. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis." Toshkent: O'qituvchi, 1965.

ko'rsatkichiga ega boladi. Bunday holda logik va grammatik hodisa bir-biriga mos keladi. Xalq ishladi misolida ega ham, kesim ham birlik formasida, lekin ega ko'plik, jamlik ma'nosida, kesim yakka holda ma'no anglatmaydi. Shunga ko'ra grammatik moslik bor-u, lekin logik moslik yoq. Xaloyiq to'planishdi gapida ega ko'plik jamlik ma'nosida, lekin birlik formasida. Demak, ega va kesimning mosligini grammatik ma'noda tushunamiz.

Ko'plik shakli o'zbek tilida nafaqat sonni bildiruvchi grammatik birlik, balki bir qancha ma'nolar ifodalovchi stilistik vositadir. U kontekstga qarab hurmat, umumlashtirish, noaniqlik, obrazlilik, turlilik kabi ko'plab semantik funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda ko'plik shaklining bunday ko'p ma'noli qo'llanilishi tilning emotsional va estetik imkoniyatlarini oshiradi. Shu bois, ko'plik shakllarini faqat grammatik mezon asosida emas, balki ularning ma'no xususiyatlarini ham hisobga olgan holda o'rganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat tarjimada, til madaniyati darslarida hamda adabiy tahlil jarayonlarida alohida e'tibor talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva O.O., Turg'unpo'latov D.R. "Otlarda ko'plik shaklining o'rganilish tarixiga oid nazariy qarashlarning umumiyliigi", 2022.
2. <https://azkurs.org>
3. Duesinov Nurmuhammad. "O'zbek tilshunosligida ko'plik kategoriyasi" bitiruv malakaviy ishi, BuxDU, 2021.
4. <https://inlibrary.uz>
5. Muhammadov A. R. , "O'zbek tilida grammatik ko'plik ifodalanishi (ot so'z turkumi misollari asosida)", <https://doi.org/10.5281/zenodo.7856933>
6. O'zbek tili gramatikasi I (Morfologiya). – T.: Fan 1975. -126 b.
7. G'ulomov A., Asqarova M. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis." Toshkent: "O'qituvchi", 1965.

8. G'ulomov A. "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi". –T: O'zdnashr. 1994-
25-bet